PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

NORMAL VA NUQSONLI RIVOJLANISHNING DINAMIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI TAHLIL QILISH

Ro‘ziyeva Nozimaxon
Andijon davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada normal va nuqsonli rivojlanish jarayonlarining dinamikasi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda shakllanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Rivojlanishning biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqligi yoritilib, normal rivojlanishda kuzatiladigan izchillik, barqarorlik va bosqichma-bosqichlik xususiyatlari ochib beriladi. Shu bilan birga, nuqsonli rivojlanish dinamikasida uchraydigan notekislik, sekinlashuv, kompensator mexanizmlarning shakllanishi ilmiy asosda tahlil etiladi. Bundan tashqari rivojlanish dinamikasiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, xususan, irsiyat, muhit, ta’lim-tarbiya va ijtimoiy sharoitlarning roli alohida ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: normal rivojlanish, nuqsonli rivojlanish, perinatal, natal va postnatal omillar, rivojlanish bosqichlari, ontogenez.

Аннотация: В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируется динамика нормальных и дефектных процессов развития, их специфические особенности и стадии формирования. Подчеркивается неразрывная связь развития с биологическими, психологическими и социальными факторами, выявляются особенности согласованности, стабильности и постепенности, наблюдаемые в нормальном развитии. Одновременно на научной основе анализируются неравномерность, замедление и формирование компенсаторных механизмов в динамике дефектного развития. Кроме того, отдельно рассматривается роль внутренних и внешних факторов, влияющих на динамику развития, в частности, наследственности, окружающей среды, воспитания и социальных условий.
Ключевые слова: нормальное развитие, дефектное развитие, перинатальные, натальные и постнатальные факторы, стадии развития, онтогенез.

Abstract: This article analyzes the dynamics of normal and defective developmental processes, their specific features and stages of formation from a scientific and theoretical perspective. The inextricable link between development and biological, psychological and social factors is highlighted, and the features of consistency, stability and gradualness observed in normal development are revealed. At the same time, the unevenness, slowdown, and formation of compensatory mechanisms in the dynamics of defective development are analyzed on a scientific basis. In addition, the role of internal and external factors affecting the dynamics of development, in particular, heredity, environment, education and social conditions, is separately considered.
Keywords: normal development, defective development, perinatal, natal and postnatal factors, developmental stages, ontogenesis.

KIRISH

Inson rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Ayniqsa bolalik davrida kechadigan rivojlanish jarayonlari shaxsning keyingi hayot bosqichlari uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois rivojlanishning sur’ati, yo‘nalishi va dinamik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Normal rivojlanish jarayonida bolaning jismoniy, aqliy, nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalari yoshiga mos ravishda izchil va uyg‘un shakllanib boradi. Biroq ayrim hollarda turli ichki va tashqi omillar

ta’sirida ushbu jarayonlarda og‘ishlar yuzaga kelishi mumkin. Natijada rivojlanish sur’ati sekinlashadi, notekislik kuzatiladi yoki ayrim funksiyalar yetarli darajada shakllanmaydi. Bu esa nuqsonli rivojlanish tushunchasini yuzaga keltiradi va uni chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Bunday global jarayonda birinchi navbatda normal va nuqsonli rivijlanishni qay tarzda kechishi, unga muhit omillarining qanday ta’sir ko‘rsatish darajasini bilish ayniqsa muhimdir. Chunki har qanday nuqson noto‘g‘ri muhit ta’sirida rivojlanadi, turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonni o‘rganish esa tog‘ri tashxis va korreksiya isharini samarali tashkil qilish uchun yetakchi omil vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bolaning psixik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishidagi farqlarni aniqlash, ularning kelib chiqish omillarini tushuntirish hamda korreksion-pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, normal rivojlanish va nuqsonli rivojlanish bir-biridan nafaqat natijasi, balki rivojlanish sur’ati, mexanizmi hamda kompensator imkoniyatlari bilan ham farqlanadi.

L.S. Vigotskiy o‘zining madaniy-tarixiy nazariyasida nuqsonli rivojlanishni faqat biologik kamchilik sifatida emas, balki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayon sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, bolaning rivojlanishidagi nuqson uning butun psixik tizimiga ta’sir ko‘rsatadi, biroq to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim va tarbiya orqali kompensatsiya imkoniyatlarini yuzaga chiqarish mumkin. Vigotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi orqali har bir bolaning potensial imkoniyatlarini rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan.

O‘zbek olimlari tomonidan ham inklyuziv ta’lim, maxsus pedagogika va korreksion rivojlantirish masalalariga oid bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarda nuqsonli rivojlanishga ega bolalarning ijtimoiy moslashuvi, mustaqil hayotga tayyorlash hamda individual yondashuv asosida ta’lim berish masalalari muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Zamonaviy ilmiy manbalarda esa inklyuziv ta’lim texnologiyalari, innovatsion pedagogik metodlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Metodologiya

Insonning rivojlanish sur’ati biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab jarayondir. Rivojlanish sur’ati bu - bu bolaning psixik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi qanchalik tez yoki sekin kechayotganini bildiruvchi tushunchadir. Ya’ni, rivojlanish bosqichlari yoshiga mos ravishda o‘z vaqtida shakllanayaptimi yoki kechikayaptimi, aynan mana shu jarayonlarni ifodalaydi. Bu esa o‘z o‘zidan normal va nuqsonli rivojlanish zonalarini hosil qiladi. Normal rivojlanish - bu bolaning yoshiga mos ravishda jismoniy, aqliy, nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarning bosqichma-bosqich shakllanishi va barqaror takomillashib borishidir. Bu jarayonda bola atrof-muhitga moslashadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va o‘z imkoniyatlarini kengaytiradi.

Normal rivojlanishda markaziy o‘rinni bolaning asab tizimi yetilishi, bilish jarayonlarining (idrok, xotira, tafakkur) izchil shakllanishi, emotsional-irodaviy barqarorlikning paydo bo‘lishi egallaydi. Oilaviy muhit, ta’lim-tarbiya, sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi omillar bu jarayonni mustahkamlaydi. Ammo bu jarayonlar doimo ham bir tekkisda kechavermaydi. Aynan shu holatlarning buzilishi, bolada turli og‘ishlarga yani nuqsonli rivojlanishning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Nuqsonli (rivojlanishda og‘ishlar bilan kechuvchi) rivojlanish esa yuqoridagi jarayonlarning ma’lum sabablarga ko‘ra sekinlashuvi, buzilishi yoki nomutanosib kechishi bilan tavsiflanadi. Bunda genetik omillar, perinatal (tug‘ilish oldi va tug‘ilish davri) shikastlanishlar, markaziy asab tizimi shikastlanishlari, noqulay ijtimoiy-psixologik sharoitlar yoki uzoq davom etuvchi somatik kasalliklar rol o‘ynashi mumkin. Natijada bola nutq, aqliy, harakat yoki ijtimoiy moslashuv sohalarida tengdoshlariga nisbatan qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday hollarda bolada rivojlanish dinamikasini kuzatish ayniqsa muhimdir.

Bolaning normal rivojlanishi - bu bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy jihatdan bosqichma-bosqich o‘sib borish jarayonidir. Har bir bola individual bo‘lsada, rivojlanish jarayoni ma’lum qonuniyatlar asosida kechadi. Bu jarayon bolaning sog‘lom o‘sishi, muhitga moslashuvi, o‘zini anglash va jamiyatda faol ishtirok etishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bolaning normal rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, rivojlanish bosqichlarini to‘g‘ri baholash va unga zarur sharoitlarni yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa bolaning chaqaloqlik davridan boshlab to keksalik davrigacha rivojlanish evolutsiyasini o‘rganish, jarayonni yanada yorqin va og‘ishlarni qaysi yosh davrilarida sodir bo‘lganligini bilish uchun eng qulay usul hisovlanadi.

Chaqaloqlik davri 0–1 oygacha, go‘daklik davri 1 oydan – 1 yoshgacha, ilk bolalik davri 1–3 yosh, maktabgacha yosh davri 3-6,7 yosh, kichik maktab yoshi davri 6,7–11 yosh, o‘smirlik davri 12–15, ilk o‘spirinlik 15–18, yoshlik davri 20–30, o‘rta yosh davri 30–50, katta yosh davri 50–70, keksalik davri yoki gerantopsixologiya 70–90, uzoq umr ko‘ruvchilar 90 dan yuqori[1]. Yuqorida insonning tug‘ilishidan to umrining so‘nggiga qadar normal rivojlanishining barcha yosh davrlari ko‘rsatilgan. Bu yosh davrlarining asosan biz o‘rganib chiqishimiz kerak bo‘lgan davrlari chaqaloqlik davri, go‘daklik davri, ilk bolalik davri, maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Chunki ayni mana shu davrlar bolalarning ham jismoniy ham psixologik shakllari ayni rivojlanayotgan davr hisoblanadi.

Bolaning go‘daklik (chaqaloqlik) davri jismoniy jihatdan juda tez rivojlanish davridir. Odatda odamning yoshi tug‘ilgan kunidan boshlab hisoblanadi. Lekin aslida odamning dunyoga kelishi, rivojlanishi tug‘ilmasdan ilgarigi, ya’ni ona qornidagi davridan boshlanadi. Bola onaning qornidaligi davrida, ya’ni to‘qqiz oy mobaynida juda tez va juda murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Bolaning tug‘ilgandan keyingi normal taraqqiyoti uning ona qornidagi taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun bolaning tug‘ilgunga qadar bo‘lgan taraqqiyotiga ham diqqate’tibor bilan qarash lozim, chunki tug‘ilgunga qadar ham bolaga tashqi muhit ta’sir qiladi[1]. Shu sababdan ham bolaning rivojlanishida uning birinchi navbatda hali embrionlik davridan boshlab sog‘lom rivojlanishini ta’minlash kerak.

Bundan tashqari chaqaloq bolaning yuzi juda kichkina boladi, chunki yuqorigi va pastki jag‘lari hali ishlamaganligi tufayli rivojlanmagan bo‘ladi. Chaqaloq bolalar ichki organlarining holati va faoliyati ham katta odamlamikidan anchagina farq qiladi. Masalan, o‘pkadagi havo kiradigan mayda pufakchalarning soni miqdor jihatdan katta odamlamiki bilan barobar bo‘lsa ham, ular juda mayda boladi (katta odamlarikiga nisbatan uch barobar kichik bo‘ladi). Shuning uchun chaqaloq bolalar katta odamlarga nisbatan uch barobar tez nafas oladilar. Chaqaloq bola bir minutda 50-60 marta nafas olsa, katta yoshdagi odam xuddi shu vaqt ichida 14-16 marta nafas oladi. Chaqaloq bola jismoniy jihatdan juda tez o‘sayotganligi tufayli sof havoga ayniqsa muhtoj bo‘ladi. Ilk yoshdagi bolalaming taraqqiyotida, buni albatta hisobga olish zarur[2]. Albatta yanggi tug‘ilgan chaqaloqning rivojlanishi jadal tarzda kechadi. Yuqorida takidlanganidek chaqaloqning 1 minutlik nafas olish sig‘imi katta yoshli insonning 1 minutlik nafas olish sig‘imidan anchagina kattadir, bu esa o‘z o‘zidan rivojlanayotgan yosh organizmni kislorodga bo‘lgan ehtiyojini ko‘pligi va bu ehtiyoj natijasida bolada moddalar almashinuvi jarayonining bir meyyorda kechayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ham o‘z navbatida bolaning sog‘lom rivojlanayotganligining sezilarli dalilidir.

Odam tashqi muxitdan ovqat qabul qilish, organizmda uni o‘zgarishi, xazm qilinishi, hosil bo‘lgan qoldiq moddalarning tashqariga chiqarilishi moddalar almashinuvi deyiladi. Moddalar almashinuvi natijasida energiya hosil bo‘ladi. Bu energiya hisobiga organlar ish bajaradi, hujayralar kupayadi, yosh organizm o‘sadi va rivojlanadi, tana xaroratining doimiyligi ta’minlanadi[3]. Bu jarayonning faol tarzda uzliksiz davom etishi sog‘lom organizmni qurishda asosiy ketakchi vosita sifatida xizmat qiladi. Yosh organizmda bu jarayonning normal kechishi ayniqsa muhimdir. Chunki unda har bir organ endigini shakllanayotgan bo‘ladi va bu holatda jarayonining normalligi va yetarlicha energiyaning hosil bo‘lishi juda muhim.

Bola shartsiz reflekslar bilan tug'iladi, ammo hayotining birinchi oyidayoq, shartsiz reflekslar asosida, tashqi ta’sirlar tufayli shartli reflekslar ham vujudga kela boshlaydi. Bola bir yoshga to'lib,

ikkinchi yoshga qadam qo'yganda bosh miya po'stining faqat odamga xos bo'lgan yuksak funksiyasi tarkib topadi, I.P. Pavlov bu funksiyani ikkinchi signal sistemasi deb atagan edi[4]. Bu tizim bolaning nutqni o‘zlashtirishi, so‘zlar orqali fikrlashi va atrof-muhitni ongli idrok eta boshlashi bilan bog‘liq bo‘lib, inson tafakkurining asosini tashkil etadi.

Hayotining birinchi oylarida, bola bezovtalangan paytlarda, qo‘l va oyoqlarning harakati juda betartib, bir-biriga moslashmagan, beixtiyor holda bo‘ladi. Keyin harakatlar asta-sekin «ongli»lashib boradi va bu harakatlar yangi sezgilarning manbayi bo‘lib xizmat qiladi, bu murakkabroq harakatlarga o‘tishni tayyorlaydi. 3—3,5 oylik bola, unda hali aniq koordinatsiyalashgan harakat bo‘lmasa ham, qo‘llarini o‘yinchoqlarga uzatadi. Aniq koordinatsiyalashgan harakat 4 oylik bolada yaxshi ko‘rinadi. Bola o‘yinchoqni bemalol qo‘liga ololadi. Uni tutib olib, u-bu yog'iga qaraydi, og‘ziga tegizib ko‘radi va shu yo‘l bilan ko‘plab har xil taassurotlar oladi. Ikki oylik bola, qorni bilan yotqizib qo‘yilsa, boshini ko‘tara boshlaydi. Uch oylikda esa yotgan holda tirsagiga tiranib turadi va bemalol u yoq-bu yoqqa qaray oladi. Shu bilan birga, qo‘ltig‘idan tutib turilsa, oyog‘ida turadi. 8—8,5 oyligida boshqalarning yordamisiz o‘tira oladi, emaklaydi va biror narsaga suyanib oyog‘ida tura oladi. 12—13 oyligida o‘tirib, tura oladi, birovning yordamisiz qadam qo‘ya oladi, demak, bola yura boshlaydi. Bolaning vaqtida yurib ketmasligiga salomatligining nochorligi, chaqaloqligida ko‘p kasal bo‘lganligi va umumiy harakat hamda sezgi organlarining kech rivojlanishi sabab bo‘ladi[5]. Aynan mana shu jarayonlar bola rivojlanishining dastlabki davrlarda yuzaga keladi. Normal rivojlanish sohasida bola o‘z qo‘l harakatlarini boshqara oladi, bilish jarayonlari va shu bilan birgalikda ko‘rish orqali atrofdagi narsalarni farqlaydi, turli tovushlarni esa eshitish orqali ohang va jarangdorligini seza oladi. Bularning barchasi bola rivojlanish ontogeneining bir meyyorda kechayotganidan dalildir. Albatta bolaning normal rivojlanishi faqat tugilgandan keyinggi amalga oshadigon jarayonlargagina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki ona qornida homila tarzda rivojlanishiga ham chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida bolaning qisqacha dastlabki rivojlanish sohalari bilan tanishib chiqdik. Agar bu normal rivojlanish sohasi bo‘lsa unda potologik, ya’ni rivojlanishdan chetga chiqish, og‘ish holati qanday bo‘ladi? Bunday bolalarda rivojlanishning bir tekkisda amalga oshmasligining asosiy sababi nimada? Albatta yuqoridagi normal rivojlanish sohasi aynan mana shu savollarga javobning bir uchini beradi. Chunki qar qanday potologiyani aniqlashdan oldin uning aslida normal holatini qanday kechganini bilishimiz kerak. Bunday ma’lumotlarga ega bo‘lish esa potologiya tushunchasini chuqurroq anglashimiz uchun zamin yaratadi.

Quyida logoped kadrlar tayyorlashda mutaxassislik fanlarining ahamiyati pedagogik tizim nuqtayi nazaridan yoritiladi: fanlar mazmunining kompetensiya bilan bog‘liqligi, nazariya-amaliyot integratsiyasi, talaba faoliyati va refleksiyasiga tayangan o‘qitish, klinik fikrlash elementlari, baholash mezonlari, amaliyot bazasi bilan hamkorlik hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlarning ta’lim jarayoniga singdirilishi kabi masalalar izchil tahlil qilinadi.

Hammamizga malum potologiya bu – normal rivojlanishdan chetga chiqishdir. Bu asosan bolaning emrionlik paytidan boshlab turli sabablarga binoan nuqsonlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq jarayondir. Ma’lumki nuqsonlar o‘z o‘zidan paydo bo‘lmaydi uning paydo bo‘lishiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Ekzogen-organik omillar deganda bola MNS ga va bola organizmiga yaxlit ta’sir etuvchi turli xil zararli ta’sirlarni tushunamiz. Bu omillarning ta’sir etish vaqtiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

1. Homilalik , ya’ni (périnatal) bolaning ona qornidaligi vaqtidagi ta ’sirlar.
2. Tug'ruq vaqtidagi jarohatlar (natal).
3. Turli xil zararli omillarning tug‘ruqdan keyingi davrda ta'siri (postnatal) [6].

Bu davrlar bolaning ona qornidaligi paytidagi turli ta’sirlar, tug‘ilish paytida bolaning turli travmalar olishi va tug‘ilgandan keyinggi turli ijtimoiy muhit omillarining salbiy ta’siridan iborat.

Ona qornida normal rivojlanayotgan homila har xil zararli ta’sirlarga uchrashi mumkin. Bu esa homila rivojining anomal tarzda o‘tishi, hattoki tug‘ilganda mayib-majruh ko'rinishga ega bo‘lishi

mumkin. Xuddi shu davrda homila asab sistemasi shakllana boshlagan bo'ladi va har qanday zararli ta’sirlar uning jismoniy va aqliy qiyofasiga ziyon yetkazadi. Bolalardagi anomal holatlar, ya’ni jismonan zaiflik, aqli zaiflik, nutqi rivojlanmaganligi - asosan tug‘ilguniga qadar zararli ta’sirlar va tug‘ilayotgandagi jarohatlanish oqibatidir[7]. Bundan ko‘rinib turibdiki homiladorlik paytida onaning haddan ziyod asabiy holatda bo‘lishi, davomli streslarni boshidan o‘tkazishi bolaning nafaqat jismoniy balki aqliy faoliyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Homiladorlik paytidagi stressning homila asab tizimi rivojlanishiga salbiy ta’siri A. Wadhwa va uning hamkorlari tomonidan o‘tkazilgan keng qamrovli tadqiqotlarda ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ularning natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori stress gormonlari darajasi homilada asabiy buzilishlar, e’tibor va kognitiv rivojlanish muammolarini yuzaga keltiradi[8]. Bundan ko‘rinib turibtiki stress bu ham onaning, ham bolaning hayoti uchun xavf soluvchi omildir. Bunday omillar sirasiga yana bir necha vositalarini kirgizishimiz mumkin. Misol uchun turli xil alkogol mahsulotlari homila rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, jumladan doktor retseptisiz istemol qilinadigon dori vositalari ham homilaning rivojlanishini sustlashtirishi mumkin. Shu sababali homiladorlik vaqtida inson ko‘p stressga tushmasligi, o‘zidan kelib chiqib turli dori vositalarini istemol qilmasligi kerak. Bu davrda birinchi o‘rinda normal uyquga e’tibor berishi, vitaminga boy mahsulotlarni istemol qilishi, iloji boricha virusli kasalliklarga chalinmaslikka harakat qilishi, agarda bu holat kuzatilsa faqat doktor nazorati ostida davolanishi kerak bo‘ladi.

Bolada paydo bo‘luvchi nuqsonlar faqatgina prenatal davrda hosil bo‘libgina qolmay, balki natal yani tug‘ruq jarayonida ham hosil bo‘lishi mumkin. Bunga turli xil tug‘ruq travmalarini misol tariqasida keltirsak bo‘ladi albatta.

Tug'ruq travmasi " atamasi tug'ruq vaqtida paydo bo'lgan organlar va to'qimalarning yaxlitligi buzilishlarini (va natijada — funktsiya buzilishi) birlashtirgan patologiya turini tavsiflaydi. Perinatal gipoksiya va asfiksiya ko'pincha tug'ma travmasiga hamroh bo'ladi yoki ularning paydo bo'lishida patogenetik aloqalardan biri bo'lishi mumkin. Tug'ruq travmalarining haqiqiy chastotasini aniqlash qiyin, ammo stalistikaga ko'ra, hozirgi vaqtda 2 dan 7 % gacha. Homilaning o'lim sababi sifatida, u 3.2 % dan oshmaydi va erta neonatal davrda o'lim sababi 2.5 %. Tug'ruq travmasi akusherlik travmasidan ancha kengroq tushuncha. Tug'ruq travmalarining etiologiyasi:

Moyillik qiluvchi omillar:

- homila kattaligi va homilador ayol kichik chanog'ining kattaligi (katta homila yoki toraygan chanoq o'rtasidagi farq);
- homilaning noto'g'ri holati (masalan, ko'ndalang, dumba bilan) (bolaning dumbasi pastda va boshi yuqorida);
- homila surunkali gipoksiyasi (kislorod ochligi);
- muddatidan oldin yoki o'tib tug'ilish;
- tug'ruqning davomiyligi (tez yoki uzoq cho'zilgan tug'ruqlar)[9].

Yuqorida jarayonlar tug‘ruq travmasini hosil bo‘lishini kuchaytiradi. Bolaning tug‘ruq yo‘lida uzoq qolib ketishi, bolaning tug‘ruq yo‘liga noto‘g‘ri joylashuvi va buning oqibatida jarrohlik amaliyotini amalga oshirish bularning hammasi bola hayotiga xavf soluvchi omillardan sanaladi. Natijada bolada turli xil nuqsonlar paydo bo‘lishi mumkindir.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari normal va nuqsonli rivojlanish dinamikasi o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlillar davomida normal rivojlanayotgan bolalarda psixik jarayonlarning izchil va bosqichma-bosqich shakllanishi kuzatilgan bo‘lsa, nuqsonli rivojlanishda ayrim funksional buzilishlar tufayli rivojlanish sur’ati sekinlashishi aniqlandi. Ayniqsa, nutq, tafakkur, diqqat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarida muayyan qiyinchiliklar namoyon bo‘lishi tadqiqot natijalarida o‘z aksini topdi.

Muhokama jarayonida korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarning samaradorligi alohida e’tiborga loyiq ekanligi aniqlandi. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga yordam berdi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhitida olib borilgan faoliyat bolalarning tengdoshlari bilan erkin muloqot qilishiga hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari normal va nuqsonli rivojlanish dinamikasini chuqur o‘rganish, zamonaviy korreksion metodlarni amaliyotga joriy etish hamda inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Бу эса келажакда махсус педагогика ва психология соҳаларида янада самарали илмий-амалий ишлар олиб бориш учун муҳим асос бўлиб хизмат қилади.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida normal va nuqsonli rivojlanish dinamikasining o‘ziga xos jihatlari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, normal rivojlanayotgan bolalarda psixik jarayonlar yosh bosqichlariga mos ravishda izchil shakllanadi va rivojlanadi. Ularning bilish faoliyati, nutqi, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlari tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida takomillashib boradi. Bunday bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayoni ham faol va barqaror kechishi kuzatildi.

Nuqsonli rivojlanishga ega bolalarda esa rivojlanish dinamikasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida ayrim psixik funksiyalarning sekin rivojlanishi, kommunikativ faoliyatdagi qiyinchiliklar hamda bilish jarayonlarida muammolar mavjudligi kuzatildi. Ayniqsa, nutq rivojlanishi, diqqatning barqarorligi va tafakkur faoliyatida sezilarli tafovutlar aniqlanganligi tadqiqot natijalarida o‘z aksini topdi. Shu bilan birga, bunday bolalarda pedagogik qo‘llab-quvvatlash va korreksion mashg‘ulotlar orqali ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkinligi ham tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ko‘rsatdi. Maxsus pedagogik metodlar va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar qo‘llanilganda bolalarning bilish faolligi, kommunikativ ko‘nikmalari va ijtimoiy moslashuv darajasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhiti bolalarning tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishiga, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga hamda psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishiga yordam berdi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson rivojlanishining dinamikasi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning uzviy bog‘liqligi asosida shakllanadigan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Normal rivojlanishda jarayonlarning izchil, bosqichma-bosqich va barqaror kechishi kuzatilsa, nuqsonli rivojlanishda esa notekislik, sekinlashuv yoki ayrim funksiyalarning yetarli darajada shakllanmasligi kabi holatlar namoyon bo‘ladi. Xulosa o‘rnida shunday deyish mumkinki, rivojlanishdagi og‘ishlar ko‘pincha prenatal, natal va postnatal davrlarda ta’sir etuvchi salbiy omillar natijasida yuzaga keladi. Shu bois bola rivojlanishini erta bosqichlardan boshlab kuzatish, normal rivojlanish mezonlarini chuqur bilish va har qanday og‘ishlarni o‘z vaqtida aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, erta tashxis va o‘z vaqtida tashkil etilgan korreksion-pedagogik yordam bolaning keyingi rivojlanish istiqbolini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, rivojlanish jarayonining individual xususiyatlarini hisobga olish, har bir bolaga mos yondashuvni tanlash va qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratish ham muhim omillardan biridir. Bu nafaqat nuqsonli rivojlanish holatlarida, balki normal rivojlanishda ham yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent – 2013, 243-b.
2. Z. Nishanova, G. Alimova “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi”, Toshkent – 2006. 24-25-b.
3. M.Abdurahimova. “Organizmda energiya va moddalar almashinuvining o’zaro bog’liqligi”. (2023). *Proceedings of international conference on modern science and scientific studies*, *2*(1),. Https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/959 .
4. P.I.Ivanov M.E. Zufarova, “Umumiy psixologiya”, Toshkent – 2008.
5. 62-b.
6. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogika Psixologiya” Toshkent – 2018. 218-b.
7. M.Y.Ayupova “Logopediya” darslik, Toshkent – 2007. 22-23-b.
8. D.R.Madazizova. “Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” o‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2018. 5-b.
9. Sharifova.M. “Ijtimoiy xavf omillari va ularning nuqsonli homila rivojlanishiga ta’siri” Buxoro innovatsiyalar universite 10.5281/zenodo.15314288.
10. “Tug'ruq travmalari” K.Z.Yahyayeva, TOSHKENT- 2019. 7-9-b.
11. O.Y.Eshbayeva “Logopediya” o‘quv qo‘llanma Qarshi – 2025. 58-b.